

**MAKTABGACHA INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANISHDA
JAMOATCHILIK BILAN ALOQALAR***Xalqaro Nordik Universiteti**1 – kurs magistranti**To'raqulova Gulchehra Egamquovna***Annotatsiya**

Ushbu maqolada mamlakatimizda joriy qilinayotgan yangi ta'lim tizimi ya'ni inklyuziv ta'lim tizimining jamoatchilik fikri bilan takomillashuvi va bu ta'lim tizimi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham joriy qilinganligi, inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida yangi qaror va farmonlar qabul qilinib, vazifalar yuklatilganligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, inklyuziv, rivojlanish, takomillashuv, harakat.

**ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ С ОБЩЕСТВЕННОСТЬЮ В РАЗВИТИИ
ИНКЛЮЗИВНОГО ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ***Международный Университет Нордик**1 – магистрант курса**Торакулова Гулчехра Егамкуловна***Аннотация**

В данной статье рассматривается новая образовательная система, внедряемая в нашей стране, т.е. совершенствование системы инклюзивного образования с учетом общественного мнения, а также то, что данная образовательная система внедряется и в дошкольных образовательных организациях, принимаются новые решения и постановления в целях по развитию системы инклюзивного образования сказано, что поставленные задачи выполнены.

Ключевые слова: образование, образование, инклюзивность, развитие, совершенствование, действие.

**INTERACTION WITH THE PUBLIC IN THE DEVELOPMENT OF INCLUSIVE
PRE-SCHOOL EDUCATION.***International Northern University.**1 - master of the course.**Torakulova Gulchehra Egamkovovna.*

Abstract.

This article considers the new educational system introduced in our country, i.e. the improvement of the system of inclusive education taking into account public opinion, as well as the fact that this educational system is introduced in pre-school educational organizations, New decisions and resolutions are being adopted to develop inclusive education, stating that the objectives have been achieved.

Keywords: education, education, inclusiveness, development, improvement, action.

Kirish. Hozirgi kunda Respublikamizda maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari va maktab internatlar mavjud bo'lib, ushbu ta'lim muassasalarida alohida ta'lim olish ehtiyojiga ega bolalar uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Ammo ko'plab sabablarga ko'ra ayrim alohida ta'lim olish ehtiyojiga ega bolalar uyda yakka tartibda o'qishmoqda yoki ayrimlari esa batamom ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Bundan tashqari maxsus maktabgacha ta'lim va tarbiyaning korreksion-pedagogik ish sifati yuqori darajada bo'lsada, biroq aynan alohida ehtiyojli bolalarning sog'lom muhitda ta'lim-tarbiya olmayotganliklari sababli ijtimoiy hayotimizga moslashishlarida ko'plab qiyinchiliklar va muammolarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham imkoniyati cheklangan bolalarning yopiq-segregatsion ta'lim tizimida o'qitilishining ko'plab salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi jahon hamjamiyati tomonidan ham tan olindi[1]. Hamda hozirgi kunda inklyuziv ta'limni yo'lga qo'yish borasida ya'ni alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning sog'lom bolalar bilan birgalikda ta'lim olishini tashkillashtirishda ham birmuncha qiyinchiliklar mavjud.

Asosiy qism. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari, metodikalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi[2]. Shu bilan birga zero hozirgi kunda

inklyuziv guruhli maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lmaganda, bu sohada juda ko'p samarali ishlar olib borilmoqda. Xorijiy davlatlarning tajribalari hamda o'zimizning milliy qadriyat va an'analarimizni uyg'unlashtirgan holda albatta davlatimiz uchun hamda alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun ham maqbul ishni olib borish darkor.

Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi. Inklyuziv guruhga ega ta'lim muassasalarida bunday bolalar uchun ularning ehtiyojlariga qarab sharoitlar yaratilishi zarur bo'ladi. Masalan: eshitishida yoki ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun dars jarayonida olingi qatorida o'tirish tavsiya etiladi va albatta ko'rgazmalilikdan foydalaniladi. Shundagina imkoniyati cheklangan bolalar jamiyat hayotida faol ishtirok etishga erisha oladilar. Inklyuziv ta'lim nafaqat ta'lim borasida, balki bolalarning ma'naviy va jismoniy o'sishlari, shuningdek vositalarni iqtisod qilish borasida ham samaralidir. Maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning ahamiyati shundaki, alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarni ilk yoshlaridanoq sog'lom bolalar qatoriga qo'shib sifatli ta'lim olishini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir. Inklyuziv ta'lim orqali anomal bolalarning ta'lim olishi va ijtimoiy jamiyatga moslashishini ta'minlaydi.

Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolaga nima beradi?

- imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi;
- mustaqil harakatlanish birgalikda hamkorlikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzaga keladi;
- o'qishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishi ortadi;
- qo'rquv, yotsirash va yakkalanish kabi xususiyatlari kamayadi. Inklyuziv ta'lim sog'lom bolalar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
- o'zlariga o'xshagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar;
- tengdoshlariga g'amxo'rlik hissi uyg'onadi;
- ularni qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish-insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;
- Atrof muhitdagi insonlarga nisbatan pozitiv munosabat shakllanadi[3];

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2023180tasdiqlash to'g'risida"[4]gi farmoniga muvofiq,

O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida 2020 - 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. 2020 - 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020 - 2021-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’limini 2025 - yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlandi. Konsepsiya erishilgan natijalar, maqsadli ko‘rsatkichlar va tegishli davrga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlardan kelib chiqqan holda 2022 - yildan boshlab har yili tasdiqlanadigan alohida “Yo‘l xaritasi” asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilandi. Konsepsiya ikki bosqichda amalga oshirish, jumladan:

2020 - 2022-yillar davomida:

- inklyuziv ta’lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtirish;

- inklyuziv ta’lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasi oshirish;
- inklyuziv ta’lim joriy etilgan muassasalarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanishi, ular maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta’minlanishi. 2023 - 2025-yillar davomida:
- inklyuziv ta’lim tizimi bosqichma-bosqich boshqa umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida joriy qilish;
- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish;^[5]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat’i nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo‘lishlari uchun oilada yashashlari va o‘z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligi kerakligi nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta’lim olishi, o‘zlashtirishda qiynalayotgan bo‘lsa, o‘qish va yozishga o‘rganish uchun maxsus yordamga ega bo‘lishi, darslarga qatnamay qo‘ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko‘rsatilishini kafolatlaydi. Inklyuziv ta’lim to‘g‘ri tanlovdir, sababi bolalar uyda yoki maxsus muassasalarda ta’lim olganda ko‘ra oddiy maktabda o‘z tengdoshlari bilan ta’lim olganda ularning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqi oshadi, ta’lim samaradorligi ham yuqori bo‘ladi. Uyda ta’lim olgan bolalar jamiyatdan uzulib qoladi, ko‘pchilikka qo‘shilolmay odamovi bo‘lib qolishadi. Maxsus

muassasalarda ta'lim olgan bolalarning ko'pchiligi esa bilim darajasi past bo'lib qolishi, yoki o'qishga qiziqishi pasayishi mumkin, sababi u yerda undan ham rivojlanishda orqada qolgan bolalar bo'lishi mumkin, baribir muhit katta ta'sir qiladi. Inklyuziv ta'limda tarbiyachi, pedagoglar, sog'lom bolalar va ota-onalar o'zaro hamjihatlikda faoliyat olib borib, nuqsonli bolalarga yordam berishlari kerak deb o'ylayman. Bugungi kunda jamiyatning fikri ham shuni tasdiqlab kelmoqda. Ota – onalardan kelib tushayotgan takliflardan ham ko'rib shuni aytishimiz mumkin va shuni ta'kidlab o'tish kerakki oliy ta'lim tizimida yuritilayotgan tizimni ham joriy qilish mumkin. Ya'ni 4+2 tizimini. Bu tizimda sog'lom bolalarga haftaning 2 kunida birga o'qish imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. https://fayllar.org/pars_docs/refs/1716/1715553/1715553.pdf
2. Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish. Feruzabonu Bobir qizi Umarova. SCIENTIFIC PROGRESS. VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2021 ISSN: 2181-1601. P-1214.
3. Akmalovna, M. M. (2022). Maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'lim. Fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi, 508-511.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida qarori PQ-4312
5. Bo'tayev, U. X., & qizi Sharopova, M. D. (2023). INKLYUZIV TA'LIM SIFATINI YAXSHILASH TOG'RSIDA AYRIM MULOHAZALAR. SCHOLAR, 1(18), 178-182.